SHAHAR JAMOAT YO‘LOVCHI TRANSPORTI ISHINING XUSUSIYATLARI

A.Ustaboyev, *PhD, dotsent,*
Logistika kafedrasi,
E-mail: aaustaboyev@gmail.com
Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shahar jamoat yo‘lovchi transporti tizimining asosiy ish faoliyati, uning tashkiliy, texnik va ekspluatatsion xususiyatlari tahlil qilinadi. Shahar sharoitida yo‘lovchilarni tashish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar, jumladan yo‘nalishlar tarmog‘i, harakat jadvali, transport vositalarining sig‘imi, bekatlarning joylashuvi va yo‘lovchilar oqimi o‘rganiladi. Shuningdek, jamoat transporti ishini samarali tashkil etish orqali aholining harakatchanligini oshirish, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hamda transport xizmatlari sifatini yaxshilash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.*

Аннотация. *В данной статье анализируется основная деятельность системы городского общественного пассажирского транспорта, а также ее организационные, технические и эксплуатационные особенности. Рассматриваются факторы, влияющие на процесс перевозки пассажиров в условиях города, включая сеть маршрутов, график движения, вместимость транспортных средств, размещение остановочных пунктов и пассажиропотоки. Особое внимание уделяется вопросам повышения мобильности населения, обеспечения безопасности дорожного движения и улучшения качества транспортных услуг за счет эффективной организации работы общественного транспорта.*

Abstract. *This article analyzes the main operational activities of the urban public passenger transport system, as well as its organizational, technical, and operational characteristics. The factors influencing passenger transportation in urban conditions are examined, including the route network, service schedules, vehicle capacity, the location of stops, and passenger flows. Special attention is given to improving population mobility, ensuring road traffic safety, and enhancing the quality of transport services through the effective organization of public transport operations.*

Kalit so‘zlar: *Shahar jamoat transporti, yo‘lovchi tashish, transport tizimi, transport infratuzilmasi, yo‘nalishlar tarmog‘i, harakat jadvali, yo‘lovchi oqimi, bekatlar.*

Ключевые слова: *городской общественный транспорт, пассажирские перевозки, транспортная система, транспортная инфраструктура, сеть маршрутов, график движения, пассажиропоток, остановочные пункты.*

Keywords: *urban public transport, passenger transportation, transport system, transport infrastructure, route network, service schedule, passenger flow, bus stops.*

Kirish. Har yili jamoat transportida yo‘lovchilarni tashish hajmi ortib bormoqda. Bu holat, ayniqsa, yirik aholi punktlarida yaqqol seziladi. Avtomobil transportining ko‘payishi va uning rivojlanishi (transport vositalari massasining ortishi, harakat tezligi, qulaylik darajasi va boshqalar), axborot hajmining ko‘payishi, aloqa tizimlarining yaxshilanishi, aholi daromadlari va bo‘sh vaqtining ortishi madaniy-maishiy hamda ijtimoiy ehtiyojlarning ko‘payishiga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, yo‘lovchi tashish hajmining oshishiga sabab bo‘ladi [1-3].

Tashish hajmining ortishi ijtimoiy va demografik omillar bilan bog‘liq. Eng avvalo, aholi punktlari aholining harakatlanishga bo‘lgan ehtiyojlari jamiyat farovonligi darajasiga, uning ijtimoiy tarkibiga, mehnat faoliyati amalga oshiriladigan joylarning rivojlanishiga (ijtimoiy ishlab chiqarish, savdo va boshqa korxonalar sonining ko‘payishi), shakllangan turmush tarziga bog‘liq. Aholining joylashish xususiyatlari, shuningdek aholi punktlari hududlarining kengayish sur’atlari,

ushbu hududlarda uy-joy qurilishi va aholining yangi dam olish maskanlarining paydo bo‘lishi ham katta ta’sir ko‘rsatadi [4].

Aholi punktlarida jamoat transportida yo‘lovchilarni tashish jarayoni uchta asosiy tashkil etuvchi elementlarga bo‘linadi: tashishlarni rejalashtirish; harakatni tashkil etish va harakatni boshqarish. Bu tashkil etuvchi omillar o‘rtasida doimiy aloqa mavjud bo‘ladi. Mamlakatimizda yo‘lovchilarni tashish jarayonida ustivor turdagi jamoat transporti bo‘lib avtobuslarda tashish hisoblanadi.

Materiallar va metodlar. Shahar jamoat yo‘lovchi transportining asosiy vazifasi-bu aholining turli maqsadlarda transport xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirib, ularni manzillariga yetkazib borishdir.

Shahar jamoat yo‘lovchi transporti aholiga transport xizmatlarini ko‘rsatish orqali xizmat qiladi va u shahar hamda unga tutash hududlarning yagona xo‘jalik tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Shahar jamoat yo‘lovchi transportining samaradorligi va sifatli ishlashi aholining funksional holati hamda mehnat qobiliyatini saqlab qolishga katta yordam beradi [5-9].

Yo‘lovchilar yo‘nalish bo‘ylab qulay sharoitda harakatlanganda, transport charchoqlarini bartaraf etish uchun alohida dam olishga hojat qolmaydi, shuning uchun ularning ishchanligi saqlanadi. Ish joyiga yetib borgandan so‘ng xodimning ishlab ketish davri ham qisqaradi.

Aniqlanganidek, belgilangan me’yordan 10-30 daqiqaga ortiq vaqt davomida transportda bo‘lish holatida mehnat unumdorligi 2,5–4% ga kamayadi.

Shunday qilib, yo‘lovchilarga sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlash shahar jamoat yo‘lovchi transporti faoliyatining majburiy shartidir.

Sifatli xizmat ko‘rsatish quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- yo‘lovchi sarflaydigan vaqt;
- yo‘lovchi sarflaydigan pul mablag‘lari;
- transport vositasiga chiqish (tushish) qulayligi;
- yaratilgan qulay sharoitlar [10-12].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 10-yanvardagi PQ-2724-son qarori qabul qilingan.

Yuqoridagi prezident qarorini bajarish yuzasidan, yo‘lovchilar tashish xavfsizligini va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish madaniyatining zarur darajasini, yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarida transport vositalari harakati maromini, belgilangan jadvallar va intervallarni, shuningdek tashuvchilarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish to‘g‘risida” 2017-yil 25-aprelda 238-son qarori qabul qilindi.

Shahar jamoat yo‘lovchi transportining ijtimoiy ahamiyati sifatida uning ommaviyligi alohida ta’kidlanadi, bu esa yo‘lovchilar tashish jarayoniga yanada e’tibor bilan yondashishni talab qiladi. 04.12.2025 kuni “Toshkent shahrida transport tizimi boshqaruvini takomillashtirish hamda tirbandliklarning oldini olishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi prezident qarori (PQ-368-son) qabul qilindi. Qaror bilan Toshkent shahri transport tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi. Unda quyidagilar nazarda tutildi, jumladan:

- aholining jamoat transportidan foydalanish darajasini 60 foizga yetkazish;
- avtobusning o‘rtacha harakat tezligini 18 km soatdan 24 km soatga yetkazish;
- transport vositalari uchun 150 ming o‘rinli to‘xtab turish joylarini tashkil etish;
- metropoliten tarmog‘i uzunligini 103 kmga yetkazish[13-15].

Millionlab odamlar ishga borish va uyga qaytish uchun jamoat transportidan foydalanadi. Jamoat yo‘lovchi transportining ijtimoiy ahamiyati va undan keng foydalanish yo‘lovchi tashishga alohida e’tibor qaratilishiga e’tibor qaratildi. Yo'lovchilarni tashish birgalikda marshrut tizimini

tashkil etuvchi marshrutlar bo'ylab amalga oshiriladi. Hududlarda ishlab chiqilgan marshrut tizimlari barcha transport turlarining samaradorligi va ishonchliligini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi kerak. Ushbu talablarni qondirish uchun kompleks yondashuv zarur [16].

Hozirgi vaqtda jamoat transportini rivojlantirish vazifalari hududlarda moliyaviy va moddiy resurslar mavjudligidan kelib chiqib, hokimiyat va transport boshqarmasi tomonidan hal etilmoqda. Bu qarorlar ko‘pincha chekka tumanlar hokimiyatlar bilan kelishilmaydi, natijada uzoq masofada joylashgan aholi punktlariga jamoat yo‘lovchi transporti qatnovlari yetishmay yoki mavjud bo‘lmay qolmoqda.

Har bir hududda aholini transport bilan ta’minlash bo‘yicha kompleks rejalashtirishni ishlab chiqish va joriy etish taklif etilmoqda. Bunday rejalashtirish hududlarda barcha turdagi transport aloqalarini sifatli tashkil etishni ta’minlash, alohida transport turlarining eng ustuvorlarini tanlash hamda shu tanlov asosida ularni rivojlantirish bo‘yicha choralar ko‘rish imkonini beradi. Kompleks rejalarni ishlab chiqish hududdagi transport xizmati masalalari bo‘yicha mavjud vaziyatni to‘liq tahlil qilishdan hamda hudud rivojlanishini inobatga olgan holda kelajakdagi yo‘lovchi tashishlarga bo‘lgan ehtiyojni aniqlashdan boshlanishi lozim [17-19].

O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 apreldagi “Shahar yo‘lovchi transporti to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 yanvardagi “Aholiga transport xizmati ko‘rsatish hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2724-sonli qarorlari jamoat yo‘lovchi transportida yo‘lovchi tashishni tashkil etish va amalga oshirishda zarur hujjat hisoblanadi.

Ko‘rsatiladigan transport xizmatlariga qo‘yiladigan talablar:

– ushbu xizmatlardan foydalanuvchilar uchun xavfsizlik va qulaylik ta’minlanishi lozim;

– yo‘lovchilarni tashuvchi transport vositalari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan harakat jadvaliga muvofiq marshrutlar bo‘ylab harakatlanishi kerak;

– oraliq bekatlarda joylashgan to‘xtash punktlari jamoat transporti foydalanuvchilari uchun piyoda yetib borish mumkin bo‘lgan masofada joylashtirilishi zarur.

Naqd pulsiz to‘lovni amalga oshiradigan yagona chiptadan foydalangan holda bir nechta transport turlarida yo‘lovchilarning manziliga yetib borishi uchun qulaylik yaratish maqsadida chora tadbirlar ishlab chiqildi.

Yo‘lovchi tashishlarni amalga oshirayotgan harakatlanuvchi tarkibning holati masalalariga e’tibor qaratildi. Yo‘lovchi tashishlarda qatnashayotgan transport vositalarining katta qismi jismoniy va ma’naviy eskirgani sababli ularni almashtirish (yangilash)ni talab etadi. Shu maqsadda 2024-2025 yillar mobaynida Toshkent shahri va viloyat markazlariga ko‘plab zamonaviy avtobuslar keltirildi va o‘z faoliyatini boshladi [20].

Xulosa: Maqolada shahar jamoat yo‘lovchi transporti tizimining faoliyati har tomonlama tahlil qilindi hamda uning tashkiliy, texnik va ekspluatatsion xususiyatlari yoritib berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yo‘nalishlar tarmog‘ini oqilona shakllantirish, harakat jadvalini optimallashtirish, transport vositalarining sig‘imini yo‘lovchi oqimiga moslashtirish va bekatlarni to‘g‘ri joylashtirish jamoat transporti ishining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, transport xizmatlarini tashkil etishda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash hamda xizmat sifati darajasini oshirish shahar aholisi harakatchanligini yaxshilashga xizmat qiladi. Umuman olganda, shahar jamoat yo‘lovchi transporti tizimini takomillashtirish barqaror shahar rivojlanishi va aholining ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пазилидинов И.А. Исследование и оптимизация городских автобусных перевозок на примере пассажирского автотранспортного предприятия АП-3 г. Екатеринбурга. ВКР магистра. Пояснительная записка № 230403С2400600 ПЗ Екатеринбург 2018.

2. Лебедева О.А. Вопросы функционирования городского пассажирского транспорта // Современные технологии и научно-технический прогресс. 2013. Т. 1. С. 40.

3. Лебедева О.А. Показатели оценки эффективности работы общественного транспорта // Современные технологии и научно-технический прогресс. 2018. Т. 1. – С. 108-109.

4. A.Nazarov, X.Ataxonov, A.Ustaboyev, A.Nazarov, Transport logistikasi O‘quv qo‘llanma. – T.: 2022.-285 bet.

5. Ulug‘Bek, M., Hoshimjon, A., & Ma’Rufxon, S. (2023). Evaluation of communication speed in the street segment of regulated road network. *Universum: технические науки*, (8-4 (113)), 8-14.

6. Ustaboev, A. N. A. (2020). Tirbandlik sabablari va uni oldini olish. NTJ NamITI, 5(1), 292-296.

7. Nazarov, A., & Ustaboyev, A. (2021). Criteria for assessing the provision of transport services to passengers in the urban community. The Scientific Journal of Vehicles and Roads, 2021(2), 23-26.

8. Ataxanov, X. (2022). Логистик концепцияларни аҳамияти. *Scienceweb academic papers collection*.

9. Мамиров, У. (2023). Namangan shahar atrofi yo ‘nalishlarda yo ‘lovchilar oqimining tahlili. *Механика и технология*, (Спецвыпуск 1 (4)), 160-166.

10. Nazarov A. Логистика тизими фаолиятининг услубий тамойиллари ва унинг бугунги холати //Scienceweb academic papers collection. – 2022.

11. Xidirov Ulug'bek Xabibullayevich. Shaxar ko‘chalarida harakatlanish qulayligini ta'minlash mezoni va uni takomillashtirish usullari. 2022. Scienceweb academic papers collection.

12. Xidirov, U. X. (2022). Jamoat transporti yo‘lovchilar oqimi va uni o‘rganish usullari. Mexanika i texnologiya, (Spesvыpusk 2), 87-91.

13. Aripovich N. A., Ulug'bekovna K. S. Analysis of road traffic accidents at unregulated pedestrian crossings //conference of innovative horizons in science & enginering. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 117-119.

14. Nazarov A., Matyaqubov O., Shamsiddinov S. Project Solutions of Traffic Jams on Intersections //European Journal of Interdisciplinary Issues. – 2025. – Т. 2. – №. 2. – С. 57-64.

15. Aripovich N. A., Egamberdiyevich M. O. Organization bus traffic on the basis of privileged separate lane in city routes //Строительство и образование. – 2024. – Т. 3. – №. 4. – С. 97-108.

16. Назаров А. Оценка показателей пассажиропотока города Ташкента. «Проблемы и перспективы транспортно-логистической отрасли Евроазийского пространства в услових мирового кризиса»// Материалы международной конференции. Волжский государственный университет водного транспорта. Астрахань. 27-28 мая 2020 г. 26-30 с.

17. Устабоев А. Транспортные проблемы современного города //Ilm, tadqiqot va taraqqiyot/Наука, исследования и развитие. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 91-92.

18. Boymirzayevich A. X., Raximjonovich U. A. Jamoat yo‘lovchi transportining yo‘nalishdagi harakatini modellashtirish //Строительство и образование. – 2024. – Т. 3. – С. 218-221.

19. Sh I. S., Ustaboyev A. R. Bus holding and speed adjusting strategy considering passenger’s waiting time perceptions //Строительство и образование. – 2025. – Т. 4. – №. 4. – С. 246-260.

20. Soibjon o‘g‘li A. I., Toxirjon o‘g‘li Y. S. Jamoat transportida elektron to ‘lov (atto) kartalari orqali to ‘lovning joriy etilishi //Namangan muhandislik-texnologiya instituti Ilmiy-texnika jurnali.